

DESMURGIYA.

Nazirova Muqaddas Abdulboqiyevna

Ulug'bekova Shaxista Maxmudovna

Abu Ali Ibn Sino nomidagi salomatlik texnikumi o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada desmurgiyaning tibbiyotdagi o'rnini, uning asosiy vazifalari, qo'llaniladigan vositalar va bog'lash usullari haqida ma'lumot berilgan. Desmurgiya jarohatlarni davolash, qon ketishini to'xtatish, shikastlangan a'zoni immobilizatsiya qilish va infeksiyalardan himoyalashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maqolada desmurgiyaning zamonaviy tibbiyot va tez tibbiy yordamdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Desmurgiya, bog'lovchi vositalar, bint, spiral bog'lam, sakkizsimon bog'lam, gips bog'lam, immobilizatsiya, jarohat, tez tibbiy yordam.

Tibbiyot tarixida jarohatlarni davolash va shikastlangan a'zolari immobilizatsiya qilishning eng qadimiy usullaridan biri bu desmurgiya hisoblanadi. "Desmurgiya" atamasi yunoncha desmos – "bog'lam", "tugun" va ergon – "ish, san'at" so'zlaridan olingan bo'lib, jarrohlikda turli bog'lovchi vositalardan foydalanish nazariyasi va amaliyotini ifodalaydi.

Bog'lam deganda bemor tanasiga davo maqsadida mahkam o'rab bog'langan bog'lov materiali tushuniladi. Jarohatga yoki tananing boshqa qismlariga davo maqsadida qo'yiladigan bog'lov materiali, bog'lamni almashtirishga esa qayta bog'lash deyiladi.

Materialning qo'llanilishiga ko'ra bog'lamlar ikki guruhga Yumshoq (platsirli, kleolli, kolloidli, ro'molli, leykoplatsirli va bintli) va qattiq (deksrinli, kraxmalli, gipsli) bog'lamlarga bo'linadi.

Panjaga va bilak-kaft bo'g'imiga, odatda, sakkizsimon bog'lam qo'yiladi. Panja va barmoqlardagi katta jarohatni bekitish uchun qaytuvchi bog'lam qo'llaniladi.

Bintni kaft utsida bir necha marta o'rab, panja orqasi bo'ylab ko'rsatkich barmoqqa yo'naltiriladi va u orqali o'tkazib, panjaning kaft yuzasini bekitiladi. Bir necha qaytuvchi o'ramlar qilib panjaning hammasini va 4 barmoq bekitiladi, so'ngra bu o'ramlarni barmoq uchidan boshlab gorizontall o'ramlar qilinib (spiralsimon bog'lam) bilak oldida tugallanadi. Bintni panjaning bir barmog'iga bog'lashni uni bilak-kaft utsi bo'g'imi oldida bir necha o'ramlar bilan mahkamlashdan boshlanadi, so'ngra bintni panja orqasi bo'ylab barmoqning oxirigacha etkazgan holda, uni asosigacha chiqadigan spiralsimon bog'lam bilan bekitiladi.

Barmoqni batamom bekitib, bintni barmoqlararo bo'shliq orqali panja orqasiga chiqariladi va bilak suyagi atrofida bir necha o'ramlar qilib mahkamlanadi. Bilakni spiralsimon bog'lam bilan bekitgan yaxshi. Tirsak bo'g'imi sohasini ham spiralsimon bog'lam bilan bekitish mumkin. Qo'lni tirsak bo'g'imidan biroz bukiladi. Bintlashni bilakda bo'g'im oldida mahkam tutib turadigan aylanma o'ramlar qilishdan boshlanadi va atsa-sekin tirsak va elkaga o'tib, bu erda bog'lamni bir necha marta aylantirib o'rash bilan tugallanadi.

Chanoq-son sohasini bog'lash. Chanoq va sonning boshloqsimon bog'lamini qo'llash juda qulaydir. Bog'lam qo'yishdan maqsad qorinning pastki qismi sonning uchdan bir yuqori qismi va dumbani yopishdir. Bint o'ramlari kesishadigan joyga muvofiq holda orqa,

yon va oldingi, (chov) boshhoqsimon bog'lamlar qo'yiladi. Belda sirkulyar o'ramlar qilinib, mutsahkamlovchi bint bog'lanadi, so'ngra bint sonning yon tomonidan oldinga keyin sonning oldingi va ichki yuzasi bo'yicha o'rab bog'lanadi. Bintni sonning orqa yarim doirasi orqali aylantirib, uning tashqi tomonidan chiqariladi, u chov sohasidan gavdaning orqa yarim doirasi orqali qiyshayib o'tadi. Bint o'ramlari takrorlanadi. Bintning keyingi o'rami oldingisidan yuqoriga tushsa, yuqoriga ko'tariluvchi bog'lam, pastga o'rala, pastga tushuvchi bog'lam, deyiladi. Tovon sohasini bog'lash. Tovondan (uning markaziy qismidan) aylantirib bintlash boshlanadi. Keyingi o'ramlar birinchi o'ramning yuqorisidan va pastidan navbatma-navbat o'raladi. Bu o'ramlarni tovonning yonidan, orqadan oldinga, tovon yuzasiga va oyoq kaftining orqasiga boldir-panja bo'g'imi va pastki panja sohasiga o'tadigan qilib qiyshiq aylantirib mahkamlanadi. o'ramlar oyoq kafti utsida kesishtiriladi.

Desmurgiya shikastlangan joyni himoya qilish, qon ketishini kamaytirish, og'riqni yengillashtirish va tiklanish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Qon ketishini vaqtincha to'xtatish (turniket, bosuvchi bog'lamlar orqali).
- Shikastlangan joyni immobilizatsiya qilish (harakatsizlantirish).
- Yarani tashqi ta'sirlardan himoya qilish (chang, mikroblar, mexanik ta'sirlar).
- Davolash jarayoniga qulaylik yaratish (jarohatga dorivor moddalarni surtish, dori vositalarini ushlab turish).

- Estetik va psixologik ta'sir (bemorni ruhiy jihatdan yengillashtirish).

Desmurgiyada qo'llaniladigan vositalar:

- Bintlar (paxta, elastik, gazli, rezina, gipsli bintlar).
- Bog'lovchi materiallar (paxta, doka, g'altakli bint).
- Maxsus bog'lovchi vositalar (turniket, shinalar, plastirlar, gips).

Asosiy bog'lash usullari:

1. Aylana (spiral) bog'lam – barmoq, bilak kabi kichik sohalarga qo'llanadi.
2. Sakkizsimon bog'lam – bo'g'imlarga (tizzal, tirsak, tovon) ishlatiladi.
3. Qoplovchi bog'lam – bosh, ko'krak va qorin sohalariga.
4. Qayishsimon (to'rsimon) bog'lam – chakka, yuz yoki orqa sohaga.
5. Dezinfeksiyalovchi bog'lam – jarohatga dori vositalarini singdirib ishlatiladi.
6. Gips bog'lam – suyak sinishlarida immobilizatsiya uchun eng samarali usul.

Desmurgiyaning tibbiyotdagi ahamiyati:

- Tez tibbiy yordamda – avtohalokat, kuyish, sinish va jarohatlarda birinchi yordam ko'rsatishda.

- Jarrohlik amaliyotida – operatsiyadan keyin yarani himoya qilishda.
- Sport tibbiyotida – mushak va bo'g'im shikastlanishlarini davolashda.
- Harbiy sharoitda – jang maydonida tezkor yordam ko'rsatishda.

Desmurgiya tibbiyot fanining muhim bo'limi bo'lib, jarohatlangan bemorga tezkor yordam ko'rsatishda, uni asoratlar va infeksiyalardan saqlashda beqiyos ahamiyatga ega.

Shuning uchun tibbiyot xodimlari va hatto oddiy insonlar ham oddiy bog'lash usullarini bilishi lozim.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov A., Shukurov B. Jarrohlik va desmurgiya asoslari. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2018.
2. Gʻulomov N. Umumiy tibbiy yordam asoslari. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
3. Адамс В. Основы первой медицинской помощи. – Москва: Медицина, 2019.
4. World Health Organization (WHO). First Aid Guidelines. – Geneva: WHO Press, 2021.
5. Сидоров А. Десмургия и перевязочные материалы. – Санкт-Петербург: СпецЛит, 2017.